

MASOFAVIY VA GIBRID TA'LIM SHAROITIDA PEDAGOGIK SAMARADORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Madjitova Yasmina Rustam qizi

ymadjidova@gmail.com

Ermatova Dilnoza Xusan qizi

dilnozakhstanovna06@gmail.com

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Alikulova Shaxnoza Abdullo qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada masofaviy va gibril ta'lim sharoitida pedagogik samaradorlikni ta'minlashning asosiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Mualliflar tomonidan raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash, interaktiv metodlardan foydalanish hamda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati izchil yoritilgan. Shuningdek, baholash tizimi, feedback berish jarayoni va o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi zamonaviy ta'limdagi muhim omillar sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik yondashuvlar va texnologik imkoniyatlarning uyg'unligi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, gibril ta'lim, pedagogik samaradorlik, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, baholash

Abstract. This article explores the key mechanisms for ensuring pedagogical effectiveness in distance and hybrid learning environments. It emphasizes the role of digital technologies, interactive teaching strategies, and student-centered approaches. In addition, assessment methods, feedback practices, and teacher competencies are discussed as essential elements of modern education. The study concludes that the integration of pedagogical innovation with technological tools significantly improves learning outcomes.

Keywords: distance learning, hybrid education, pedagogical effectiveness, digital tools, interactive methods, assessment

Аннотация. В статье анализируются основные механизмы обеспечения педагогической эффективности в условиях дистанционного и гибридного обучения. Особое внимание уделяется использованию цифровых технологий, интерактивных методов и личностно-ориентированного подхода. Также рассматриваются вопросы оценивания, обратной связи и профессиональной компетентности преподавателя.

Ключевые слова: дистанционное обучение, гибридное обучение, педагогическая эффективность, цифровые технологии, интерактивные методы

Bugungi kunda ta'lim tizimida samarali o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'qitish tizimiga yangicha yondashuvlar axborot texnologiyalarining rivojlanishi tasirida yanada rivojlanib bermoqda. Ayniqsa, so'nggi taxminiy 15 yilda, masofaviy va gibril ta'lim shakllari keng ommalashib, ham amaliy ham nazariy ahamiyatini namoyon etmoqda. Shu bilan birgalikda, ushbu jarayon pedagogik samaradorlik masalasini yanada muhim qilib qo'ydi[1].

Masofaviy ta'lim an'anaviy auditoriyani o'quv jarayonidan ancha uzoqlashtiradi va oflayn o'qish imkoni cheklangan o'quvchilarga mustaqil tarzda bilim olish imkonini beradi. Yanada mukammlashgan holda an'anaviy va onlayn o'qitishning afzalliklarini uyg'unlashtirish esa gibril ta'lim zimmasiga tushadi. Shu jihatdan qaraganda, gibril ta'lim bugungi kunda eng samarali ta'lim shakllaridan biri sifatida baholanmoqda[2].

Pedagogik samaradorlikni ta'minlashda esa eng muhim omillardan biri bu maqsadli va to'g'ri qo'llay olishdir. Oddiy o'quv qo'llanmasi va platformadan foydalanibgina qolmay, balki didaktik maqsadga muvofiq tashkil etish yanada muhim hisoblanadi. Misol uchun, turli xil onlayn platformalar, video darslar, interaktiv o'yinlar va testlar, o'quv jarayoniga ruh bag'ishlaydigan jonli muhokamalar orqali darslarni qiziqarli va o'quvchilarni yanada faollashtirish mumkin. Bunday yondashuv albatta o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi[3].

Alohida ta'kidlab o'tish joizki, interaktiv o'qitish metodlari juda muhim ahamiyatga ega. Masofaviy ta'limda an'anaviy ma'ruza shakli ko'pincha yaxshi va yetarli natija bermaydi. Aksincha, muammoli vaziyatlar yaratish, kichik guruh-guruh bo'lib ishlash imkoni va loyiha asosida topshiriqlar berish o'quvchilarning yanada bilimni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bunday interaktiv metodlar orqali nafaqat bilim olibgina qolmay, balki, shaxsiy fikrlash, vaziyatni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi[4].

O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv zamonaviy ta'limning yans bir muhim jihatidir. Bu metodda o'qituvchi yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rovida bo'lsa, o'quvchi esa ta'lim jarayonining markazida turadi. Natijada o'quvchilar o'z ehtiyojlariga va qiziqishlariga monand ravishda bilim oladi. Bunday yondashuv shubhasiz o'zlashtirish darajasining oshishiga sabab bo'ladi[5].

Yozishni o'rgatishda turli metodlardan foydalanish juda katta yordam beradi. Masalan, boshqariladigan yozish metodi (controlled writing method). Ushbu metodda o'quvchilarga aniq yo'riqnomaga asosida yozish o'rgatiladi. Yoki yo'naltirilgan yozish metodi (guided writing method). Bu metodda esa o'quvchilarga ma'lum darajada erkinlik beriladi. Lekin o'qituvchi yordami ham mavjud bo'ladi. O'quvchilarga yozish jarayonida butunlay erkinlik berishga asoslangan erkin yozish metodi (free writing method) ham juda samarali hisoblanadi. Bunda o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil tarzda ifodalaydilar.

Bundan tashqari, o'qituvchining fikr-mulohazasi (feedback) ham muhim rol o'ynaydi. Faqatgina xatolarni ko'rsatish emas, balki o'quvchining muvaffaqiyatli jihatlarini ham ta'kidlash zarur. Bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni yozishga yanada qiziqtiradi[6].

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, masofaviy va gibrid ta'lim sharoitida pedagogik samaradorlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni uyg'unlashtirish zarur. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy rivoji va o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson, T. (2008). *Onlayn ta'limning nazariyasi va amaliyoti*. Athabasca Universiteti nashriyoti.
2. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). *Oliy ta'limda aralash (blended) o'qitish*. Jossey-Bass nashriyoti.
3. Moore, M. G. (2013). *Masofaviy ta'lim bo'yicha qo'llanma*. Routledge nashriyoti.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Til o'qitishdagi yondashuvlar va metodlar*. Cambridge Universiteti nashriyoti.
5. Brown, H. D. (2004). *Tilni baholash*. Pearson Education nashriyoti.
6. Harmer, J. (2007). *Yozishni qanday o'rgatish kerak*. Pearson Longman nashriyoti.